



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATNNI O'QIB TUSHUNISHGA TAYYORGARLIK MASHQLARI

Niyozmatova Umidaxon Ulug'bek qizi

67-umumiy o'rta ta'lim maktabi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Email: umidaniyozmatova4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda PIRLSga tayyorgarlik mashqlari haqida so'z boradi. Qolaversa, matnni o'qib tushunishga tayyorgarlik davrida qo'llaniladigan ba'zi samarali metodlar ham keng yoritib berilganki, pedagoglar bu metodlardan o'z faoliyatida foydalansa, o'quvchilarning matnni o'qib tushunish darajasi sezilarli darajada oshadi.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish savodxonligi, harakatdagi matn, noodatiy savol, matnni tushunish, taxlil.

Аннотация. В данной статье рассматриваются упражнения для подготовки к PIRLS в начальных классах. Кроме того, широко освещаются некоторые эффективные методы, используемые в период подготовки к пониманию прочитанного, поэтому, если преподаватели используют эти методы в своей работе, уровень понимания прочитанного у учащихся значительно повысится.

Ключевые слова: PIRLS, грамотность чтения, текст в движении, необычный вопрос, понимание текста, анализ.

Abstract. This article discusses PIRLS preparation exercises in primary grades. In addition, some effective methods used in the preparation period for reading comprehension are also widely covered, so that if educators use these methods in their work, the level of reading comprehension of students will significantly increase.

Keywords: PIRLS, reading literacy, text in motion, unusual question, text comprehension, analysis.

O'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos, zaruriyat hisoblanadi. O'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor qaratish, jumladan, uning ma'lumotni tanlashi, tushunishi, talqin qilishini baholash tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biridir. O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir.[1]

Ushbu nuqtayi nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.[2]

Ayni shu o'qish savodxonligini oshirish borasida yurtimizda ham bir qator ilmiy ishlar, yangiliklar va izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlar doirasida ba'zi

mavjud o‘qitish metodlarimizga tanqid ko‘zi bilan ham qaralayotgani hech kimga sir emas.

Xususan, an‘anaviy ta‘limning eng yetakchi metodlaridan qayta hikoya qilish metodi bugungi kunda biroz eskirganday, go‘yo. Sababi, o‘qilgan matnni hech qanday shartsiz so‘zlab berish topshirig‘i matnni to‘liq tushunishni anglatmaydi. O‘quvchi berilgan badiiy yoki ilmiy matnni yoddan aytib berishi, yoki ko‘r-ko‘rona tushunmasdan so‘zlab berishi ham mumkin. Ba‘zida so‘zma-so‘z aynan takrorlab berilgan matn ham aslida umuman anglanmagan bo‘lish ehtimoli ham mavjud. Buni o‘quvchilarning umumiy g‘oyani topishga qiynalgani oshkor qilib qo‘yadi. Yuzaki bilimlarga ishonish tufayli o‘quvchilar o‘zlashtirish darajasini noto‘g‘ri baholash holatlari ham paydo bo‘lishi mumkin. Qolaversa, aslida hech qanday hayotiy ko‘nikma shakllantirmaydigan tez o‘qish topshiriqlarini ham misol qilishimiz mumkin. Har ikki holat ham qimmatli vaqtni behuda sarflash, suv ustidagi ko‘pik misol yuzaki bilim olish hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini oshirish uchun savod o‘rgatish davridan boshlab tayyorgarlik mashqlarini olib borish talab etiladi. Endigina o‘qish va yozishni o‘rgangan o‘quvchilar uchun matndagi so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish matn mazmunini tushunishdan muhimroq hisoblangani uchun ular diqqat e‘tiborini faqat to‘g‘ri o‘qishga qaratadi. Qolaversa, matndagi ba‘zi so‘zlarning ma‘nosini o‘quvchi hali anglab yetmaganligi ham matnning umumiy mazmunini to‘g‘ri tushunishga soya soladi. Bunday paytlarda o‘quvchilarning matn mazmunini to‘liq tushunishlarini ta‘minlash uchun har bir pedagog o‘z darslarida quyidagi metodlardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. “Harakatdagi matn” metodi
2. To‘g‘ri, noodatiy savollar berish

Harakatdagi matn. Bu metoddan yangi matn bilan tanishish bosqichida foydalanish mumkin. Bunda o‘qituvchi matnni ifodali o‘qib beradi. O‘quvchilar o‘rnilaridan turib olib, manashu matnda aytilayotgan voqealarni mimika, qo‘l, gavda harakatlari bilan (nutqsiz) ko‘rsatib berishlari kerak bo‘ladi. Shu jarayonda o‘quvchilar har bir so‘zni qanday ko‘rsatib bersam ekan degan savolga javob izlab, miyasida har bir so‘zni ma‘nosini topishga, ularni tushunib, ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Natijada, matn mazmuni ham odatiy matnni tinch holatda o‘tirib tinglangandan ko‘ra yaxshiroq esda qoladi. Shuningdek, bu tasavvur qilish qobiliyatini yana ham oshiradi va o‘quvchilarning matnni hissiy tushunishi ham yuksaladi. O‘qituvchi dastlab aynan tayyorlangan (gavda va qo‘l harakatlariga moslangan) maxsus qiziqarli matnlarni tajriba tariqasida olishi mumkin. O‘quvchilar o‘rganib olishgandan so‘ng o‘qishdagi har bir matnni shu tarzda harakatli ko‘rinishga aylantirishlari mumkin. Quyidagi matnni siz ham sinab ko‘rishingiz mumkin:

Ertak. Bir kuni ertalab qizaloq sinfxonasiga xafa holatda kirib keldi. O‘quvchilar uni ko‘rib hayron bo‘lishdi. Sababini so‘rashdi. Qizaloq ularga bir qarab qo‘ydi-yu, lekin javob bermadi. Bolalar sababini qidirib –qidirib oxiri topishdi. So‘ng ular bir-birlari bilan maslahatlashib, qizchani ko‘nglini olishga harakat qilishdi. Bugun qizchaning tug‘ilgan kuni edi. Bolalar qizaloqqa kutilmaganda

tug‘ilgan kun sovg‘alarini berib, tabriklaymiz deb qarsak chalishdi. Qizaloq bu kutilmagan syurprizdan boshi ko‘kka yetib, do‘stlariga minnatdorchilik bildirdi.

Harakatlar tartibi:

- qizchaning xafa holati;
- o‘quvchilar yuzida hayronlik va savol alomati;
- yechim topish holati;
- sovg‘a berish, tabriklab qarsak chalish;
- qizaloqning qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib rahmat aytishi.

Matnni tushunishda savol berishning ahamiyati

Matnni o‘qib tushunishga tayyorgarlik ishlarida o‘qituvchi tomonidan savollarning to‘g‘ri berilishi ham katta ahamiyatga ega. Odatiy bo‘lib qolgan kim? nima? qachon? kabi javobi faqat xotirani sinashga mo‘ljallangan savollarni berish o‘quvchi fikrlashini rag‘batlantirmaydi. Aksincha, o‘qituvchining fikrlashga undovchi, mohirona bergan savollari o‘quvchilarning o‘sha matnni yanada yaxshiroq tushunishlariga zamin hozirlaydi. Masalan, 1-sinf o‘qish darsligida keltirilgan “Rahmdil qizcha” matni bo‘yicha tuzish mumkin bo‘lgan savollarni ko‘rib chiqsak.

Darslikda berilgan savollar:

1. Hikoyada gap yilning qaysi fasli haqida bormoqda?
2. Nima uchun chumchuqlarga qishda qiyin bo‘ladi?
3. Hikoya qahramonining ismini ayting va uni ta‘riflang.
4. Masha chumchuqlarga qanday yordam berdi? Ularni nima bilan boqdi?
5. Siz ham Masha kabi qushlarni parvarish qilasizmi? Ularga mehribonmisiz?

Tavsiya qilinayotgan savollar:

1. Hikoya qahramoni Masha qushlarni bahorgacha boqib to‘g‘ri ish qildimi? Nima uchun?
2. Masha qushlarni boqqani uchun u qanday foyda ko‘rdi?
3. Biz tabiatga g‘amxo‘rlik qilish orqali nimaga erishamiz?
4. Agar Mashani o‘rnida siz bo‘lganingizda va ota-onangiz qushlarni boqishingizga qarshi bo‘lganida qanday yo‘l tutar edingiz?
5. Tabiatga g‘amxo‘rlik qilishga kim javobgar?

Ko‘rib turganingizdek, tavsiya qilinayotgan savollar hikoyada aynan aks etmagan “ort mazmun” haqida ham fikr yuritishga chorlaydi va aminmizki, hikoyada ilgari surilgan g‘oyani darslikda berilgan savollardan batafsilroq ochib berishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan har ikki metod ham tajribada sinalgan samarali usul hisoblanib, bular yordamida o‘quvchilarning matnni o‘qib tushunish darajasini oshirish, bu orqali esa, xalqaro baholash dasturlaridagi natijalarimizni ham yaxshilab olishga imkon tug‘iladi. Eng asosiysi, o‘quvchilarimizning hayot uchun kerakli bo‘lgan tushunish, axborotdan foydalanish va taxlil qilish ko‘nikmalari ham shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma (Matematika fani, tabiiy yo‘nalishidagi fanlar, ona tili va adabiyot fani

o‘qituvchilari, metodistlari va mazkur sohalar mutaxassislari uchun mo‘ljallangan axborotnoma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2020-yil. – 128 bet.

2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

3. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu.

4. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. I qism./U.Aydarova, N.Azizova –Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. –80 b.